
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Referendum kuni ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida ma'lumot bersangiz

Javob: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida"gi Qonunining 32-moddasiga asosan ovoz berish referendum kuni soat 8.00 dan 20.00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida uchastka komissiyasi referendum o'tkaziladigan kunga kamida o'n kun qolganda fuqarolarni xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, harbiy qismlarda, sanatoriylarda, dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, shuningdek olis va borish qiyin bo'lgan yerlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan referendum uchastkalarida, agar ro'yxatga kiritilgan barcha fuqarolar ovoz berib bo'lgan bo'lsa, uchastka komissiyasi ovoz berish tugaganligini istalgan vaqtda e'lon qilishi mumkin.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-06 17:14:48